

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA HAYOTIY MANZARALAR TALQINI**To'raxanova Halima Raxmatilla qizi****University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi****O'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025704>****Annotatsiya:**

Maqolada O'tkir Hoshimovning adabiy me'rosida katta o'rin egallagan “Ikki eshik orasi” romanida uchraydigan hayotiy lavhalar talqiniga e'tibor qaratiladi. Insonlar taqdiri va murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlanganligi romandan olingan parchalar bilan dalillangan. Tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g'ayrinsoniy mohiyatiga urg'u berilgani, har bir ota-onanning qalbini jarohatlagani, ko'ngillarga ozor yetkazgani manzaralar talqinida urg'ulangan.

Kalit so'zlar:

Insonparvarlik, muhabbat mojarolari, roman, hayotiy manzara, hikoya janri, kompozitsiya, sujet.

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, uning salaflari qalamiga mansub bo'lgan nazm va nasr namunalari bir-biridan go'zal, bir-biridan betakror ekanligini ko'rib hayratga tushamiz. Ulardagi bu jihat doimo bir-biridan ma'naviy ozuqa olib boyib boradi. An'anaviylikdan ilhomlanib, o'z asarlarini yangicha jilolantirgan ijodkorlarni o'zbek adabiyotida tarixida juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Ular o'zidan avvalgi ijodkorlarning g'oyalarini yangilab, o'ziga xos yondashuvlar bilan boyitib o'z dunyoqarashlari, tafakkuridan kelib chiqib, borliqni anglay olganlar. Ularning asarlarida mavjudlik, uning rang-barang qirralari, inson hislarining oniy tuyg'ulari betakror tashbehlar, solishtirmalarda tahlillanadi. Lirika inson hissiy kechinmalari nazm durdonalarda ifoda etilsa-da, bir lahzalik ilohiy anglamalar shoirning ruhiy dunyosida voqe'lanadi. Nasrda esa xarakterlar o'zi haqidagi fikrlarni xatti-harakatlari, nutqi va oy-xayollari bilan g'oyalarda aks etadi. Yozuvchi bu o'rinda xuddi mohir zargar kabi qo'yilish kerak bo'lgan detallarni o'rni-o'rniga qo'ya olishi kerak. Adib hayotiy hodisalarga, ijtimoiy voqealikka munosabati qanchalar kuchli bo'lsa, poetik xarakterning shakllanishi va namoyon bo'lishi shunchalar ta'sirchan va qudratli kechadi. O'tkir Hoshimov el- ardoqlagan yozuvchi, sinchi sifatida nasrning betakror tovlanishlarini obrazlar va xarakterlar qiyosida talqin eta olgan ijodkor hisoblanadi. “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi” romanlarida hazrati inson va taqdirning sinovli kunlari taqqosi murakkablik ziddiyatlar orasida emas, soddalik, qisqalik, mantiqiylik prizmasida ifoda etilgan. “Ikki eshik orasi” romani 1986-yil yozilgan bo'lib, o'zbek xalqining urush yillarida boshidan kechirgan sinovli kunlari ayanchli sevgi qissalari va hayotiy mushohadalar aks etgan roman hisoblanadi. 1966-yilda Toshkentda misli ko'rilmagan dahshatli zilzila sodir bo'ladi. Zilzila qanchadan-qancha odamlarning yostig'ini quritib, bir necha ming insonlarni boshpanasiz, dardmand qilib qo'yadi. Yozuvchi mazkur hodisaning oniy lahzalardagi harakatini ham mohirlik bilan tasvirlaydi: Tag'in nima bo'ldi? Kim u meni to'shakdan uloqtirib yuborgan? Nimaga deraza shaqillaydi? Yuzim achishyaptimi? Qon-ku! Kitob shkafi ag'darildimi! Oynasi sindimi? Osmon yorishib ketdi shekilli? Nega o'rnimdan turolmayman? Axir uxlaganim yo'q-ku! Es-hushim joyida-ku. Nimaga yer silkinaypti?! Ana, bir nima gumburladi. Yer tagida allanima guvillaypti.¹

¹Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi. Roman. –Toshkent: Sharq, 2015. –564.B.

Go‘yo tabiat hodisasining butun dahshati aynan shu o‘rinda mohirlik bilan tasvirlangan. Romaning kompozitsiyasi ham original. U yetti qism, yetti bobdan tashkil topgan. Bu boblari esa qahramoning tildan hikoya qilinib, alohida tadqirlar tasviriga asoslanadi. Adib qishloq kishilarning urushdan keyingi hayotini tavsiflar ekan, obrazlar talqinida ularning xarakter xususiyatlari bo‘y ko‘rsatganiga ham e‘tibor qaratadi:

–Jon ukam! - dedim yalinib. - Urmang! Martabangizbundan ham ulug‘ bo‘lsin! Och qolgan...Bo‘lmasa shu ishni qilarmidi! Xayolimga yarq etib bir o‘y keldi. «Shu norastani uyga olib ketsamchi? Kimsanim umshda! Bitta o‘g‘lim ikkita bo‘lar! Robiyaga uka bo‘lib yurar... Och bo‘lsak och,to‘q bo‘lsak to‘q yuraveradi». Ammo o‘sha zahotiboshqa bir andishani o‘ylab qoldim. O‘zimiz-ku qoqqanda qoziq, osganda xurmachasiz o‘tiribmiz. Cholimga nima deyman? Erta-indin bolaning ota-onasi daraklab kelib, o‘g‘limni nega egallab olding, desa nima qilaman?²

Smimiy insoniy munosabatlar, mehr-shafqat, odamiylik kabi tushunchalar misralarda aks etgan. Roman voqeasi Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar, Shomurod, Munavvar Aliyeva, Ra‘no, Umar Zakunchi, Olimjon Komilov kabi turli xarakter va turli toifadagi obrazlar tilidan voqealarga munosabat tizmasida urush voqealari, ochlikdagi qiyin sharoitlar ochib berilgan. Asarda asosiy obrazlargina emas, balki Rashid Abzi, Bashor Opa, Oysara Samadov, singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Qora ammaning o‘z o‘g‘li Kimsaning sevgilisini Robiyani ilojisizlikdan Shomurodga to‘y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib yo‘ldan ozgan keliniga mardlik bilan adolat qilishi, Muzaffar va Munavvarning qismatlari bir-biri bilan chalkashib chuqur iztirob uyg‘otishi bilan bog‘langan lavhalar yozuvchi dahosining ko‘rsatuvchi belgi sifatida urg‘ulangan. Timsollar orasida Orif Oqsoqol, Xusan Duman, Komil tabib epizodik obrazlar roman voqealarini boyituvchi, xarakterini ochib beruvchi vosita sifatida keltirilgan. Orif oqsoqol xalq o‘rtasida katta obro‘yga ega, eng og‘ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga otlantira oladi, ularni qo‘llab quvvatlaydi:

Ma‘lim! - Oqsoqol nosini tupurib kaftining orqasi bilan soqol-mo‘ylovini arttdi.

- Duma - meni qadrdomim. Meni aytdi dersiz: narisi bilan bir yilda quling o‘rgilsi 52-uy qurib beramiz. o‘shangacha shu xonadon sizniki. Qani, pajalista! Oqsoqol «pajalista» deyishga dedi-yu, ko‘z qiri bilan pakana kishiga xavotirlanib qarab qo‘ydi. Tanti insonligi va serg‘ayratligi aynan shu o‘rinda aks etgan.

Asarda Kimsan Husanovning ham obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan bo‘lsa-da, ikki bobdagi hikoyasi orqali uning mard-oriyatli, jasur, lafzida tura oladigan, xalqona ta‘riflaganda: “belida belbog‘i bor yigit” ekanligini uning Vatan himoyasiga chog‘langan paytida bilishimiz mumkin. Kimsan o‘z yurti uchun kurashadi va jonini qurbon qiladi. Romandagi yana bir ayol obrazi Robiya bo‘lib, inson xarakterinig eng murakkab ko‘rinishlari ifodalangan obraz hisoblanadi. Yoshligida onasidan yetim qoladi va otasi tarbiyasida ulg‘ayadi. Robiya juda aqlli, matonatli, go‘zal bir o‘zbek qizi sifatida hayotning barcha sinovlariga bardosh beradi. Romanda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, odamlarning taqdiridagi xilma-xillik yozuvchi dahosining betakror iqtidor egasi ekanligini ko‘rsatadi. Bugungi kun uchun ham roman muammolar uchun yechim g‘oyalar bera olishi bilan qadrlidir.

²Hoshimov O‘tkir. Ikki eshik orasi. Roman. –Toshkent: Sharq, 2015. –169..B.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman . – Toshkent: Sharq, 2015.–158.B
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1976. — 568 b.
3. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: Movarounnahr, 2009. — 384 b.
4. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. — М.: Наука, 1963. — 252 с.
5. Atoiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: O'zadabiynashr, 1958. — 124 b.